**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**
# Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 28 - oktabr 176-8-0-Q/21 Surxondaryo viloyati hokimligi

**Surxondaryo viloyati hokimining 2021-yil 21-maydagi “Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlarida elektron auksion savdolariga qo‘yiladigan yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqining minimal qiymatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3-8-0-Q/21-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-avgustdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarini berish hamda arxitektura-qurilish ishlarini amalga oshirish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4427-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2021-yil 6-avgustdagi 02-2422-sonli, Denov tuman hokimining 2021-yil 11-oktyabrdagi 01-36/1084-son xatlarinii ijrosini ta’minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Viloyat hokimining 2021-yil 21-maydagi “Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlarida elektron auksion savdolariga qo‘yiladigan yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqining minimal qiymatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3-8-0-Q/21-son qaroriga quyidagicha o‘zgartirish va qo’shimchalar kiritilsin:

a) qaror kirish qismidagi “bo‘sh turgan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali doimiy foydalanishga berishning minimal qiymatini belgilash” so‘zlari “bo‘sh turgan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali mulk huquqi hamda ijara huquqi asosida berishning minimal qiymatini belgilash” so‘zlari bilan;

1-banddagi “bo‘sh turgan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali doimiy foydalanish huquqi” so‘zlari “bo‘sh turgan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali mulk huquqi hamda ijara huquqi asosida berish” so‘zlari bilan;

2-band 2-3-xatboshilaridagi “doimiy foydalanish huquqi bilan” so‘zlari “mulk huquqi

hamda ijara huquqi asosida” so‘zlari bilan;

3-banddagi “doimiy foydalanish huquqining har bir tuman (shahar) uchun minimal qiymatini” so‘zlari “mulk huquqi hamda ijara huquqining har bir tuman (shahar) uchun minimal qiymatini” so‘zlari bilan;

4-banddagi “yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berish” so‘zlari “mulk huquqi hamda ijara huquqi asosida berish” so‘zlari bilan;

7-banddagi “yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqining minimal qiymatini” so‘zlari “mulk huquqi hamda ijara huquqining minimal qiymatini” so‘zlari bilan;

1-ilovasidagi “doimiy foydalanish huquqining minimal qiymati” so‘zlari “mulk huquqi hamda ijara huquqining minimal qiymati” so‘zlari bilan almashtirilsin.

b) 2-ilova o’z kuchini yo’qotgan deb topilsin.

2. Denov tumani “Namozgoh” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan qurilish mollari bozori tashkil etish uchun elektron onlayn-auksion orqali mulk huquqi hamda ijara huquqi asosida sotiladigan bo‘sh turgan yer uchastkalarining minimal qiymati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), viloyat hokimligi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” DUK (J.Mengliyev) mazkur qarorning “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalarida rasman e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz)ga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Mamanov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyati hokimi** **Bobolov T.A.**

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 28 октябрдаги
176-8-0-Q/21-сон қарорига
1-илова

**Denov tumani “Namozgoh” mahallasi hududidan auksion savdolariga chiqarilayotgan 36 kv.metr yer maydonining mulk huquqi hamda ijara huquqining minimal qiymati minimal qiymati**

| № | Bajariladigan ishlar nomi | BHM (Bazaviy hisoblash miqdori) | Hujjatlarni tayyorlash qiymati (BHMga nisbatan, baravarda) | Jami summa | Asos | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Yer uchastkasini tanlash materiallarini tayyorlash ishlarining qiymati | 270 000 | 2 | 540 000 | VMning 1023-sonli qaror nizomining 6-bandi | Narxlar BHMning miqdori va yer uchastkasining maydoniga qarab oʻzgaradi hamda tizim tomonidan avtomat kiritiladi. |
| 2 | Yer uchastkasiga boʻlgan huquqlarni davlat roʻyxatidan oʻtkazishga oid xarajatlar | 270 000 | 5 | 1 350 000 | VMning 623-sonli qaror nizomining 4.9-bandi | Oʻzgarmas stavka (BHM oʻzgarganda oʻzgaradi) hamda tizim tomonidan avtomat kiritiladi. |
| 3 | Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish nuqtalarining mavjudligi boʻyicha. (ART qiymati) | 270 000 | 4 | 1 080 000 | VMning 1023-sonli qaror nizomining 7-bandi a) xatboshi | Oʻzgarmas stavka (BHM oʻzgarganda oʻzgaradi) |
| 4 | Qurilish boʻlimi (Yer uchastkasini tanlashga doir boshqa materiallarni tayyorlash miqdori) | 270 000 | 2 | 540 000 | VMning 1023-sonli qaror 7-bandi b) xatboshi | Oʻzgarmas stavka (BHM oʻzgarganda oʻzgaradi) hamda tizim tomonidan avtomat kiritiladi. |
| 5 | Yer uchastkasining joylashgan joyi boʻyicha | 35 048 359 | | 35 048 359 | Denov tuman hokimining 2021 yil 4 maydagi 0136/510-sonli xati | Oʻzgarmas stavka |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Yer uchastkasining yillik soliq stavkasi** | | | | | | |
| 6 | Yer solig‘ining yillik miqdori | 101 640,96 | 0,0036 га ер майдони учун | 101 640,96 | VMning 1023-sonli qaror nizomining 24-bandi | O‘RQ-657 bilan tasdiqlangan 0,01 ga maydon uchun yillik yer solig‘ining stavkalariga asosan yer uchastkasining maydoniga qarab o‘zgaradi. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Denov tumani “Namozgoh” mahallasi hududidan auksion savdolariga chiqarilayotgan 108 kv.metr yer maydonining mulk huquqi hamda ijara huquqining minimal qiymati minimal qiymati** | | | | | | |
| **№** | **Bajariladigan ishlar nomi** | **BHM (Bazaviy hisoblash miqdori)** | **Hujjatlarni tayyorlash qiymati (BHMga nisbatan, baravarda)** | **Jami summa** | **Asos** | **Izoh** |
| 1 | Yer uchastkasini tanlash materiallarini tayyorlash ishlarining qiymati | 270 000 | 2 | 540 000 | VMning 1023-sonli qaror nizomining 6-bandi | Narxlar BHMning miqdori va yer uchastkasining maydoniga qarab o‘zgaradi hamda tizim tomonidan avtomat kiritiladi. |
| 2 | Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga oid xarajatlar | 270 000 | 5 | 1 350 000 | VMning 623-sonli qaror nizomining 4.9-bandi | O‘zgarmas stavka (BHM o‘zgarganda o‘zgaradi) hamda tizim tomonidan avtomat kiritiladi. |
| 3 | Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish nuqtalarining mavjudligi bo‘yicha. (ART qiymati) | 270 000 | 4 | 1 080 000 | VMning 1023-sonli qaror nizomining 7-bandi a) xatboshi | O‘zgarmas stavka (BHM o‘zgarganda o‘zgaradi) |
| 4 | Qurilish bo‘limi (Yer uchastkasini tanlashga doir boshqa materiallarni tayyorlash miqdori) | 270 000 | 2 | 540 000 | VMning 1023-sonli qaror 7-bandi b) xatboshi | O‘zgarmas stavka (BHM o‘zgarganda o‘zgaradi) hamda tizim tomonidan avtomat kiritiladi. |
| 5 | Yer uchastkasining joylashgan joyi bo‘yicha | 74 845 077 | | 74 845 077 | Denov tuman hokimining 2021 yil 4 maydagi 0136/510-sonli xati | O‘zgarmas stavka |
| **Yer uchastkasining yillik soliq stavkasi** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 6 | Yer solig‘ining yillik miqdori | 304 922,88 | 0,0108 га ер майдони учун | 304 922,88 | VMning 1023-sonli qaror nizomining 24-bandi | O‘RQ-657 bilan tasdiqlangan 0,01 ga maydon uchun yillik yer solig‘ining stavkalariga asosan yer uchastkasining maydoniga qarab o‘zgaradi. |

| **Denov tumani "Namozgoh" mahallasi hududidan auksion savdolariga chiqarilayotgan 144 kv.metr yer maydonining mulk huquqi hamda ijara huquqining minimal qiymati minimal qiymati** | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **№** | **Bajariladigan ishlar nomi** | **BHM (Bazaviy hisoblash miqdori)** | **Hujjatlarni tayyorlash qiymati (BHMga nisbatan, baravarda)** | **Jami summa** | **Asos** | **Izoh** |
| 1 | Yer uchastkasini tanlash materiallarini tayyorlash ishlarining qiymati | 270 000 | 2 | 540 000 | VMning 1023-sonli qaror nizomining 6-bandi | Narxlar BHMning miqdori va yer uchastkasining maydoniga qarab o‘zgaradi hamda tizim tomonidan avtomat kiritiladi. |
| 2 | Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga oid xarajatlar | 270 000 | 5 | 1 350 000 | VMning 623-sonli qaror nizomining 4.9-bandi | O‘zgarmas stavka (BHM o‘zgarganda o‘zgaradi) hamda tizim tomonidan avtomat kiritiladi. |
| 3 | Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish nuqtalarining mavjudligi bo‘yicha. (ART qiymati) | 270 000 | 4 | 1 080 000 | VMning 1023-sonli qaror nizomining 7-bandi a) xatboshi | O‘zgarmas stavka (BHM o‘zgarganda o‘zgaradi) |
| 4 | Qurilish bo‘limi (Yer uchastkasini tanlashga doir boshqa materiallarni tayyorlash miqdori) | 270 000 | 2 | 540 000 | VMning 1023-sonli qaror 7-bandi b) xatboshi | O‘zgarmas stavka (BHM o‘zgarganda o‘zgaradi) hamda tizim tomonidan avtomat kiritiladi. |
| 5 | Yer uchastkasining joylashgan joyi bo‘yicha | 100 343 436 | | 100 343 436 | Denov tuman hokimining 2021 yil 4 maydagi 0136/510-sonli xati | O‘zgarmas stavka |
| **Yer uchastkasining yillik soliq stavkasi** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 6 | Yer solig‘ining yillik miqdori | 406 563,84 | 0,0144 ga yer maydoni uchun | 406 563,84 | VMning 1023-sonli qaror nizomining 24-bandi | O‘RQ-657 bilan tasdiqlangan 0,01 ga maydon uchun yillik yer solig‘ining stavkalariga asosan yer uchastkasining maydoniga qarab o‘zgaradi. |